

TURKISTON O'LKASIDA SOVET HOKIMYATINING IQTISODIY SIYOSATI VA OQIBATLARI TARIXSHUNOSLIGI

Toshpo'latov Ulug'bek Mashrabjon o'g'li

SamDU tarix fakulteti 4-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: prof. Saidov Ilhomjon

Annotation

One of the unique features of the Soviet system is that in the second half of the 19th century, the main objects of the Russian Empire's invasion policy were the Bukhara Emirate, Kokan and Khiva Khanates in Central Asia. Russia, which took advantage of their independence, lack of mutual cooperation, and on the contrary, their growing internal struggle for supremacy in the region, subjugated them one after another. This act of invasion of Tsarism was not limited to occupying a foreign territory and turning it into a colony, but it was also aimed at damaging the culture and moral foundations of the local population. caused him to resist with the fact that its echoes were felt even in our days - at the end of the 20th century. As a proof of our opinion, it is enough to highlight the sharp and prolonged conflict between the leadership and the society.

Key words: Turkestan, Soviet power, economic policy, the principle of concessions, market relations, diplomatic and military expeditions, topographers, geologists, the movement "to use all efforts to restore and improve cotton cultivation in Central Asia".

KIRISH

XIX asrdagi haqiqiy tarixiy jarayonning butun borishi agar mustamlakachilik davrining boshlanishi mintaqaning podsho qo'shinlari tomonidan zabit etilishi bilan bir vaqtga to'g'ri kelsa, uning halokati XX asrning oxirlaridagina yaqqol namoyon bo'lganligini ko'rsatadi. Bu vaqtga kelib, O'zbekiston mustaqil suveren davlat maqomini oldi. Uning xalqlari jamiyatni demokratik asoslarda o'zgartirish yo'lidan borib, bozor munosabatlarini va erkin tadbirkorlikni rivojlantirishga intilmoqdalar.

Bunday davrlashtirish faqat O'zbekiston tarixining, XIX asr ikkinchi yarmi — XX asrdagi voqeliklari va ularning rivojlanishiga moyil tushib qolmasdan, ayni paytda Evropaning sanoat kapitalizmi tajovuziga uchragan Sharq tarixiga ham muvofiq keladi. Bu davrlashtirish nafaqat mintaqadagi tarixiy jarayon mohiyatini idrok etish, shu bilan birga, undagi muayyan qonuniyatlar va o'ziga xos xususiyatlarni ajratib ko'rsatish, O'zbekiston xalqi shu qadar uzoq davr mobaynidagi tutqunlik sharoitida haqiqatda uni ikki marta ijtimoiy-madaniy halokatlarga mahkum etgan yot tuzumlarga qarshi turish uchun o'z salohiyati va ma'naviyati poydevorini qanday qilib saqlab qololganini anglab etish va tushunish imkonini beradi.

ASOSIY QISM

Bu haqda bir qadar to'liqroq tasavvur hosil qilish uchun mintaqadagi mustamlakachilik sarchashmalariga qaytamiz va chorizmning XIX asr ikkinchi yarmi — XX asr boshlarida O'rta Osiyoga nisbatan amalga oshirgan strategik rejalarini ko'rib chiqamiz. Shu o'rinda mustamlakachilik negizlari chorizm bosqinchiligi bilan chambarchas bog'liq bo'lganligi sababli bu bosqin XIX asrning birinchi yarmidayoq uning uchun zamin tayyorlashdan boshlanganini, keng ko'lamli qidirish ishlari olib borish, qo'qon xonligining hududiy yaxlitligini vaqtivaqt bilan buzib turish, uning chegaralariga qo'pol ravishda bostirib kirish, Sirdaryoning Quyi oqimlaridagi Raim (1847), Oqmachit (1857), G'arbiy Sibir tomondagi Kopal (1847), Olmaota yaqinidagi Verniy (1854) va boshqa strategik jihatdan qulay bo'lgan mudofaa inshootlarini zabit etish bilan qo'shib olib borilganligini eslatib o'tmoqchimiz¹. Rossiya tomonidan qurilgan manzilgohlar, istehkomlar va mudofaa inshootlari Orenburg va Sibir harbiy-strategik yo'llaridagi tayanch, rus bosqinchilarining Qo'qon, Buxoro va Xiva xonliklari hududlari sari chuqur kirib borishi uchun esa boshlang'ich nuqtalar bo'ldi. XIX asrning ikkinchi yarmidagi voqealarning avj olishiga xalqaro omil — Rossiya bilan Angliyaning O'rta Osiyoda ta'sirga ega bo'lish uchun keskin raqobatlashuvi ham muhim ahamiyat kasb etdi.

¹ Кастельская З.Д. Из истории Туркестанского края. — М., 1980. С. 29.

Jahondagi etakchi davlatlarga aylanib qolgan ikki imperiya — Rossiya va Britaniya bir-biridan xavfsirashi tufayli, ya’ni bir tomon O’rta Osiyo hududini ikkinchisiga qaraganda oldinroq qo’lga kiritishi mumkinligidan cho’chib, ayni bir vaqtning o’zida o’z harakatlarini boshlab bordilar. Biroq, agar London Afg’onistonidagi mag’lubiyatlari va Hindistondagi beqarorlik tufayli mazkur mintaqadagi hujumkorlik strategiyasining xarajatlari o’zi qo’lga kiritishi mumkin bo’lgan manfaatlardan ortiqroq bo’lishini tushunib etib, «chevara siyosati»ga qaytgan bo’lsa, Peterburg mustamlakalarga ega bo’lish stivilizastiya olamiga mansublik belgisidir, deb baho beruvchi shuhratparast generallari Qistovi bilan 40—50-yillarda Qo’qon xonligidan tortib olingan hududlarni qoziq qoqib ajratib olishga va xonlikka qarshi keng miqyosli harbiy harakatlarni avj oldirishga intildi. Harbiylarning tez sur’atlar bilan kuchayib borgan bosqinchiligi Rossiya Tashi ishlar vazirligi tomonidan birmuncha vaqt «so’ndirildi», chunki u o’z xususiyatiga ko’ra xalqaro vaziyatga, G’arb bilan Sharqning jamoatchilik fikriga quloq solishga majbur bo’ldi, shidstatli harakatlardan tiyilib turish haqida ogohlantirildi. Rossiya Tashqi ishlar vazirligi tayyorgarlik bosqichini cho’zishni — diplomatik agentlar, elchixonalar, missiyalar, ilmiy va savdo ekspedistiylari orqali (ular «O’rta Osiyo xonliklari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni jonlantirish» maqsadida doimiy ravishda Sharqqa yuborib turilardi) mintaqada sinchkovlik bilan keng ko’lamda razvedka ishlari olib borishni talab qildi. Tashqi ishlar vazirligining Osiyo departamenti bu kabi ishlarning bevosita tashkilotchisi bo’ldi. Unga harbiy vazirlik, moliya vazirligi va boshqa idoralar faol yordam ko’rsatdilar. Masalan, 1858 yili birdaniga uchta ekspedistiya tuzildi: sharqshunos N. V. Xanikov boshchiligidagi «ilmiy» ekspedistiya Eron va Hirot vohasiga; Ch. Valixonov boshchiligidagi savdo ekspedistiysi Qashqar (Janubiy-Sharqiy Turkiston)ga va diplomatik ekspedistiya Xiva hamda Buxoro xonliklariga yuboriladigan bo’ldi. Bu ekspedistiyyaga Londondagi rus harbiy agenta, O’rta Osiyoga hujum qilish siyosatining tarafdori, polkovnik N. P. Ignatev boshchilik qildi. Ekspedistiylar Tashqi ishlar vazirligi va Harbiy vazirlikning maxsus yo’riqnomalari hamda hamkorlik qiluvchi guruhi bilan ta’min etildi. Ular

tarkibiga diplomatlar, olimlar, topograflar, geologlar, geograflar, harbiy mutaxassislar, Rossiya savdo-sanoat doiralarining vakillari kiritildi. Masalan, N. P. Ignatevning diplomatik missiyasiga 190 dan ortiq kishi hamrohdik qildi. Uning ixtiyoriga hatto A. I. Butakov qo'mondonligi ostidagi Orol flotiliyasini ham berildi. Alovida ahamiyat berilgan bu missiya oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi: mintaqadagi umumsiyosiy vaziyatni o'rganish; Buxoro va Xivada rus savdosini kengaytirish va yaxshilash, xonlik ishlariga «inglizlarning zararli aralashuvi»ni barbod qilish va ularni o'z tomoniga jalg etish, rus savdo kemalarining Amudaryo bo'y lab erkin suzib yurishiga xonlarning roziliginini olish. IV yo'riqnomasida: «Sizlarga yuklatiladigan ishlarning eng muhimi Amudaryo bo'y lab ochiq kema qatnovini yo'lga qo'yishdan iborat. Bu vazifani bajarish uchun imkon bo'lган barcha vositalar bilan harakat qilishingiz kerak»⁶², — deyilgan edi. Harbiy vazirlik yo'l-yo'lakay topografik, statistik va «umuman harbiy ma'lumotlar»; Amudaryo, turkmanlar, «ularning harbiy kuchi» va Xivaga munosabati, Xivadan va Buxorodan Eron va Afg'onistonga boriladigan yo'llar, Amudaryoning yuqori oqimidagi vodiyyidan Hindiqush orqali Hind o'lkasiga, Buxorodan Samarqand va Qo'qon xonligiga olib boradigan yo'llar, Xiva, Buxoro va, iloji boricha, Balxning harbiy kuch va vositalari to'g'risida («har jihatdan») ma'lumotlar to'plashni topshirdi. Missiyaning Xiva va Buxoroda etti oy mobaynida olib borgan faoliyati natijasida bo'lajak asosiy janglar haqidagi batafsil harbiy xaritalar ishlab chiqildi, joylarning topografik tasvirlari olindi, Amudaryo etaklari va uning quyi tomonlari, Orol dengizidan tortib Xivagacha, shuningdek, Xivadan daryo bo'y lab 600 chaqirimgacha yuqori tomonga qarab ketadigan katta hudud to'g'risida tadqiqot ma'lumotlari to'plandi. Ignatevning takliflari Buxoroda amir Nasrullo tomonidan xayrixohlik bilan qabul qilindi, Xivada esa xon Said Muhammad tomonidan ham, savdo tabaqalari tomonidan qat'iy dushmanlik bilan qarshi olindi, ular: «Uz

² Погорельский И. В. История Хивинской революции и Хорезмской советской республики. 1917-1924. Л. 1984. С. 252-253.

mollaringizni rus kemalarida tashishingiz mumkin», degan taklifga javoban: «Bizning moldarimiz rus kemalarida tashilganidan ko'ra chirib ketgani afzal», deb javob qaytardilar. Bu borada Ignatevning Rossiya nomidan har ikkala davlat o'rtaсидаги avvalgi kelishmovchiliklar unutib yuboriladi, xivalik savdogarlarga ham Osiyoning boshqa mamlakatlari savdogarlari ega bo'lgan imtiyozlar beriladi, Amudaryo bo'y lab tashiladigan tranzit mollardan 2,5%, kemalardan xonlikka tushiriladigan yuklardan 5% miqdorida boj yig'ish imkonini tug'iladi, deb olgan majburiyati ham yordam bermadi. Ekspedistiya yakunlariga bu xilda baho berish «gapga ko'nmaydigan» ko'shnilar bilan diplomatik muzokaralar olib borishdan bevosita qurolli siquvga, faol hujumkor harakatlarga o'tish «vaqt etganligi»ni bildirardi. Ana shu paytdan boshlab diplomatik va harbiy idoralarning Rossiya siyosatidagi O'rta Osiyoga doir tutgan yo'li tezda bir-biriga yainlasha boshladi, ular o'rtaсида ilgari mavjud bo'lgan «ixtiloflar» «siyosatchilarning siyosati»dan boshqa narsa emasligi ma'lum bo'ldi. Rossiya imperiyasi hukmron doiralarining rejalarini va mo'ljallarida O'rta Osiyo muammosi ustuvor o'rin egallab, «Osiyoda o'z sanoatimiz, o'z madaniyatimiz va o'z savdo-sotig'imiz ta'sirini kuchaytiraylik», «Bizning chegaralarimizga tutash bo'lgan dunyoning bu qismidagi madaniy ishda ishtirok etishimizni talab qilamiz», «Bizning ham bu viloyatga erkin kirishimiz mumkin bo'lgan vaqt etdi» va hokazo chaqiriqlar tobora balandroq eshitila boshladi. Peterburgdagagi «maslahat kengashlari» O'rta Osiyo xonliklarining yaqin qo'shnilarini bo'lgan Orenburg va G'arbiy Sibir general-gubernatorlari A. A. Katenin va Gasford ishtirokida O'rta Osiyoda joylarni razvedka qilishdan tortib ayrim aholi punktlarini bosib olishga tayyorgarlik ko'rishgacha bo'lgan harakatlarning aniq rejalarini tuzib chiqa boshladi. Kaspiy sohilida Dandevil, Amudaryoda A. I. Butakov, Chu daryosi havzasi mintaqasidagi qo'qon ermulklarida Venyukov razvedka otryadlarining harakati 1859 yil bahori va yozida To'qmoq va Pishpekni, 1860, 1862 yillarda Qo'qon qal'alarini bosib olish bilan nihoyasiga etdi. 1863 yil 1 avgustda IV va Harbiy vazirlik o'rtaсида «O'rta Osiyodagi kelgusi harakatlar xususidagi umumiy mulohazalar» kelishib olindi. 1863 yil 20 dekabrda Orenburg va Sibir harbiy-

strategik yo'lini birlashtirish to'g'risida podsho farmoni e'lon qilindi. Bu razvedka maqsadidagi ekspedistiylar va tarqoq harbiy yurishlar bosqichi tugaganligidan hamda O'rta Osiyo davlatlariga qarshi keng harbiy kampaniya boshlanganidan darak berardi. Podsho qo'shinlari keng bosqinchilik harakatining tayyorgarlik bosqichi ayni vaqtda O'rta Osiyo xonliklarini iqtisodiy ekspluatastiya qilish bilan qo'shib olib borildi. Bu yangi savdo bozorlari va xom ashyo manbalariga ehtiyoj sezayotgan Rossiya savdo-sanoat doiralari tomonidan hukumat siyosatining to'la qo'llab- quvvatlanayotganligini bildirar edi. Rossiya fabrikantlari va zavodchilari O'rta Osiyoga nisbatan amalga oshirilayotgan «Qatiy» siyosatni olqishlab, uni Rossiya imperiyasi tarkibiga qo'shib olishga chaqirdilar. Qo'qon xonligining 40—45 yillaridayoq bosib olingan ayrim hududlari ular tomonidan Rossiya voqeligining ajralmas qismlaridan biri bo'lib qolgan qandaydir mavjud narsa deb qaralar, ularning iqtisodiy ko'rsatkichlari va ulardan darhol foyda chiqarib olish imkoniyatlari o'rganilardi. Bu doiralarning vakillari o'z maqsadlariga erishish uchun o'zlariga qulay bo'lган barcha vositalardan, shu jumladan, vaqtli matbuotdagi keng targ'ibotchilik kompaniyasidan foydalanishga intilar edilar. Rossiya matbuotida, ayniqsa, ishbilarmon doiralar tomonidan qo'llab turiladigan matbuotda «rus qurolining balandparvoz g'alabalari» haqidagi maqolalar bilan bir qatorda, «Rossianing Osiyo erlaridagi stivilizastiya tarqatuvchilik missiyasi» ham keng targ'ib etilar, Turkistonni tezlik bilan «o'zlashtirish», «obodonlashtirish», u erga «aholini to'g'ri joylashtirish» haqida gap borardi.³ Birovlar kema qatnaydigan suv yo'llari bilan qora dengiz, Azov, Kaspiy va Orol dengizlarini birlashtirishga, «rus tovarlarining O'rta Osiyoga borishini osonlashtirish»ga chaqirsalar, boshqalar Kaspiy dengizida harbiy flotiliyani kuchaytirishni, Orol dengiziga yo'l ochish va Sirdaryo bo'ylab kemachilikni rivojlantirishni taklif etishar, uchinchi yo'nalish tarafdarlari esa (ular orasida yirik Rossiya to'qimachilik magnati A. Shipov ham bor edi) O'rta Osiyo xom ashysidan foydalanib, ip-gazlama ishlab chiqarishni kengaytirish Rossiya uchun eng foydali ish bo'lar edi, deb o'ylashardi. Shipov o'z

³ Игнатьев Н. Миссия в Хиву и Бухару в 1858 г. С-Пб., 1897. С. 278.

fikrining isboti sifatida Amerika paxtasiga qaramlikdan kutulish maqsadida Hindiston va Avstraliyada paxta etishtira boshlagan Buyuk Britaniyani misol qilib keltiradi. U «O'rta Osiyoda paxta etishtirishni qayta tiklash va takomillashtirish uchun butun kuchg'ayratni sarf etish»ga chaqirdi. Chunki ip-gazlama sanoati yangi sarmoyalar yaratishga eng ko'p qulaylik tug'dirardi. «Sarmoyalar etishmayotgan davlatda bu, ayniqsa, muhimdir», deb yozgan edi. Rossiyada sanoat kapitalizmining rivojlanishi Amerika Qo'shma Shtatlaridan paxta keltirishga to'la- to'kis bog'li edi. 1861 — 1864 yillardagi fuqarolar urushi tufayli to'qimachilik tarmog'i halokat yoqasiga kelib qoldi: u 1860—1861 yillarda Amerikadan paxta keltirish 6, O'rta Osiyodan keltirish 3 baravarga qisqardi; bir pud paxtaning narxi 4—5 so'mdan 7 so'm 50 tiyinga ko'tarildi va yana oshib borib, 1862 yilda 12—13 so'mga, 1864 yilda 22—24 so'mga etdi.⁴ O'lkaning tabiat zaxiralaridan foydalanishga qiziqib qolgan Rossiya imperiyasi tadbirkorlari Moskva universiteta qoshida Moskva qishloq xo'jalik jamiyatini va tabiatshunoslik ishqibozlari jamiyatining Turkiston o'lkasi iqtisodiy zaxiralariga bag'ishlangan qo'shma majlisini chaqirish tashabbuskori bo'ldilar (1866). Unda sanoat va savdo turli tarmokdarining besh yuzdan ortiq vakili, shuningdek, yirik olimlar ishtirok etdi. Majlisda so'zga chiqqan Moskva Qishloq xo'jalik jamiyatini prezidenta I. N. Shatilov O'rta Osiyoning tabiiy boyliklari va iqtisodiyoti haqida ma'ruza qilib, o'lka bilan aloqani har tomonlama rivojlantirishning ahamiyati va istiqboli haqida to'xtalib o'tdi. U «savdogarlar va sanoatchilarni... rus qo'shinlari boshlagan ishni oxiriga etkazishga... va Rossiya uchun Osiyoning ahamiyatini mustahkamlash»ga chaqirdi. O'sha yillardagi matbuotda O'rta Osiyon Rossiya imperiyasining paxta bazasiga aylantirish masalasiga bag'ishlangan maqolalar tez-tez bosilib turar, xususan, ularda Amerika juda uzoqsta joylashgan, shu sababli paxtani «bizning qo'l ostimizda bo'lган Osiyo mamlakatlari»dan izlash haqida o'yash kerak, O'rta Osiyo bozorlari rus savdosotig'i uchun juda muhimdir, lekin rus savdogarlarining xonliklardagi hayoti va mol-mulki xavf ostida qolmokda, shuning uchun Rossiya bu borada muhim «harbiy-

⁴ Статистический ежегодник 1917—1923 гг. Т. I, ч. 3. Т., 1924, с. 80—81.

siyosiy tadbirlar»ni amalga oshirishi zarur, degan fikrlar qayd etilardi. O’rta Osiyo xonliklariga va uning boyliklariga yo’l qidirish bilan bog’liq bo’lgan sabab keng miqyosli mustamlakachilik bosqinlariga faqat boshlang’ich turtki bo’lib xizmat qildi. «Ishtaha ovqat vaqtida keladi», degan hikmatli ibora Rossiya mustamlakachiliga batamom mos keladi. Mustamlakachilar nima foyda keltirsa, (u xoh paxtachilikni kengaytirish, xoh oltin, neft yoki toshko’mir qazib olish, xoh Kaspiy yoki Orol dengizida baliq sanoatini rivojlantirish yoxud Qo’qon, Buxoro va Xivaning nodir narsalarini chaykov bilan sotish bo’lsin) o’sha narsaga hirs bilan bo’yin cho’zishardi. Bu holat o’z-o’zidan doimiy qidiruv doirasini mintaqaning moddiy va odam resurslarini talash yo’li bilan cheksiz ravishda kengaytirishga olib keldi, Rossiya harbiylarining ham, shuningdek, jamiyatdagi boshqa qatlamlarning ham yanada g’arazli rejalarini ilgari surishlariga yordam berdi.⁵ Rossiya tadbirkorlari chorizmning O’rta Osiyoga bosqinchilik yurishlarining birinchi bosqichi natijasidayoq o’z savdo-sanoat faoliyatlarini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarga ega bo’ldilar. Ko’p sonli amaldorlik tuzilmalari, savdo manzilgohlari, foydali azilmalarga ishlov berish bo’yicha jamiyatlar tashkil etish, yo’llar qurish bo’yicha loyihalar va hokazolar orqali ularga jadal yordam ko’rsatildi. Masalan, 1858 yilda 2 mln. so’m sarmoyaga ega bo’lgan «Kaspiyorti savdo shirkati» tashkil etilib, u Urta Osiyoda zavod va fabrikalar qurish, bu erdan barcha zarur xom ashyoni sotib olish, davlat zavodlaridan yiliga 45 ming so’mlik miqdordagi metallni davlat narxida olish, O’rta Osiyo va Shimoliy Eronga temir, po’lat, mis, gazmol mahsulotlari va hokazolarni sotish huquqiga ega bo’ldi. Bu soliqlar, qo’yilgan sarmoyadan foizlar olish, mahalliy bozorlarni zabit etish, mahalliy hunarmandchilikni kasod qilish yo’li bilan juda katta mikdordagi modstiy vositalarni metropoliyaga tashib ketishning, mintaqqa mahalliy aholisini o’taketgan beboshlik bilan ekspluatastiya qilishning boshlanishi edi. Chorizmning maqsadlarini xaloskorlik deb niqoblash orasida esa, amalda uning haqiqiy niyatlariga mos keladigan uchta narsa — mintaqani bosib olish, mustamlakaga aylantirish va

⁵ Социально-экономическое и политическое положение Узбекистана накануне Октября. Т., Фан, 1973. С.29.

ruslashtirish hamda yaqin kelajakda «yangi rus Turkistoni»ni tashkil etish rejasi yashiringan edi. Biroq, hujjatlarning guvohlik berishicha, dastlabki paytlarda chorizmning rejalariga O'rta Osiyo davlatlarining mustaqilligini to'la- to'kis tugatish vazifasi kirmagan. Bu nihoyatda murakkab, qimmatga tushadigan va xavfli ish edi. Mazkur davlatlarning ichki mustaqilligini saqlab qolgan holda ularning haqiqatda chorizmga bo'y sunishi ancha foydalidir, deb hisoblandi. Shunday qilinganda quyidagi bir qator vazifalar hal etilishi mumkin edi: ichki muxtoriyatning saqlab qolinishi O'rta Osiyo tufayli kelib chiqadigan ingliz-rus kelishmovchiligin ma'lum darajada yumshatar va qo'shni

XULOSA

Bu g'oya 60-yillarning oxirida chor qo'shinlari tomonidan Turkiston, Avliyoota, Chimkent va Toshkent bosib olingandan keyin hamda 1865 yilda Turkiston viloyati tashkil etilgandan so'ng faollik bilan targ'ib etila boshladi. Masalan, chorizmning «yarim norasmiy» organi bo'lgan «Moskovskie vedomosti» gazetasi ko'pgina maqolalarida «davlatimiz g'aznasining qimmatbaho pullari ana shu yangi chekka o'lkaga sarf etilishi va u erdag'i xarajatlar butunlay Rossiyaning mahalliy mablag'lari hisobidan to'lanishi»ga yo'l qo'yib bo'lmaydi, deb bayon qilgan edi.⁶ Bu fikr «Moskva» gazetasi tomonidan, ayniqsa, yaqqol ifodalab berildi. Boshqa organlar ham shu ruxda o'z fikrlarini bildirdilar. Ana shu rejalgarda muvofiq, chorizmning harbiy harakatlari tufayli o'z hududlarining muayyan qismidan ajralgan Buxoro amirligi va Xiva xonligi ham Rossiya imperiyasiga qaram davlatlar bo'lib qoldi. Buxoro amirligidan tortib olingan Xo'jand, O'ratega, Jizzax, Samarkand, Kattaqo'rg'on 1868 yilda Turkiston general-gubernatorligining Zarafshon okrugini tashkil etdi. Xiva xonligi Amudaryoning butun o'ng sohilidan ajraldi, bu erlar Amudaryo bo'limi nomi bilan Turkiston tarkibiga kiritildi (1873).⁷

⁶ Игнатьев Н. Миссия в Хиву и Бухару в 1858 г. С-Пб., 1897. С. 286.

⁷ Кастельская З.Д. Из истории Туркестанского края. —М., 1980. С. 36.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Игнатьев Н. Миссия в Хиву и Бухару в 1858 г. С-Пб, 1897.
2. Кастельская З.Д. Из истории Туркестанского края. —М., 1980.
3. Погорельский И. В. История Хивинской революции и Хорезмской советской республики. 1917-1924. Л. 1984.
4. Социально-экономическое и политическое положение Узбекистана накануне Октября. Т., Фан, 1973.
5. Статистический ежегодник 1917—1923 гг. Т. I, ч. 3. Т., 1924.